

THE IMPORTANCE OF AESTHETIC EDUCATION IN PRESERVING HISTORICAL MONUMENTS

Bobonazarov Serali Ulugmurodovich
Navoi State Pedagogical Institute. Navoi (Uzbekistan)

ANNOTATION

The Uzbek land amazes the world with its unique art forms that flourish and flourish. When we think about such high stages of development, it is no secret that the roots of architecture go back to the primitive times of mankind.

These include architectural monuments in Khiva, Samarkand, Shakhrisabz, Kokand, Termez, Tashkent, Bukhara and many other cities. These memorial monuments are examples of immortal, unique and priceless works of art created by our past generations and are recognized as the artistic and cultural heritage of our people, as well as one of the masterpieces of world culture.

Keywords: cultural heritage, decorative ornaments, architecture, colorful decorations.

INTRODUCTION

Xalq ustalari tajribasi, bilim va malakalari avloddan - avlodga o'tib ustoz shogird ananalriga sodiq qolgan holda bizgach etib keldi. Mahoratli, qo'li gul ustalar tomonidan asrlar davomida to'plangan boy madaniy meros, yorqin ranglar jilosi, nozik didli bezaklar, yuqori madaniy saviyada ishlangan naqshlar xalq memorchilik yodgorliklarida o'z aksini topa olgan.

Usta-hunarmandlar mahalliy xom ashyolardan mohirona foydalanib, bularning barchasidan o'z ijodlarida o'lmas shoh asarlar yaratib qoldirganlar.

Ota bobolarimiz mahobatli inshootlarni qurishda xom g'ishtdan yoki paxsadan mohirlik bilan foydalanaolganlar. Devorlarini suvashda loy yoki ganchdan foydalanilgan. Binolarni toshdan, ganch va sapoldan foydalanib mohirlik bilan bezatilgan

VI-VIII asrlarda binokorlik usullarining yaxshi rivojlanishi natijasida, avvalgilariga nisbatan mukammal bo'lgan gumbazlar, yangi ko'rinishga ega bo'lgan binolar bunyod etildi.

Shular qatorida amaliy dekorativ bezak san'atida ham jadal rivojlanishlar natijasida realistik tasvirlar shartli ifodalana boshlandi. Saroy va arklarning devorlari yo'lsimon, xoshiyali va boshqa geometrik shakllarga chizilgan naqshlar bilan bezatila boshlandi.

Shu davrga mansub ko'plab inshootlarning devoriy surat bezaklarda saroy ahlining maishiy, jang, ov manzaralari tasvirlanganini ko'rsishimiz mumkin. Aksariyat devoriy rang tasvir asarlarda afsonaviy va ertak qahramonlar yovvoyi hayvonlarni bilan jang qilayotgan vaqti tasvirlangan.

Ayrim hollarda real hayvon va qushlarning tasvirlari ham uchratishimiz mumkin. Tasvirlarda naqqoshlarning kompozitsion shartlilikka erishishga harakat qilganlari sezilib turibdi.

VIII-XIII asrlarga kelib Yangi turdagi masjidlar, boy va zodogonlar uchun binoralar, maqbaralar, madrasa va xonaqolar, madaniy inshootlar barpo etila boshlandi. Shaharlarda qasrlar, karvon-saroilar, hammomlar bilan bir qatorda boshqa inshootlar qurilshi jadallashdi.

Binolarni bezash ishlari, naqqoshlik san'atining yanada rivojlanishiga olib keldi. Bezash ishlarida geometrik naqshlar juda keng qo'lanila boshlandi. Buxorodaga Somoniylar maqbarasi devorlaridagi o'yma girix bunga yorqin misol bo'la oladi

XI-asr oxiri XII asr boshlarida naqqoshlik san'ati asosan memorchilikda rivoj topdi. Bu esa me'morchilik obidalarini yanada ko'rkamlashuvuga olib keldi. Buxoro, Samarqand, Xorazm va boshqa shaharlarda xalq ustalari naqshlar bilan bezatilgan hashamatli masjidlar, madrasalar, maqbaralarni barpo ettirishdi. XI-XII asr monumental me'morchiligida badiiy dekorativ bezash ishlari muhim o'rin egalladi.

Albatta O'rta Osiyo san'ati va madaniyati taraqqiyotining muhim bosqichi XIV asrning 70-yillaridan boshlandi. Amir Temur (1336 - 1405) hukmronlik qilgan davrda Samarqand Sharqdagi yirik imperiyaning markaziga aylandi.

Amir Temur o'z imperiyasi po'ytaxti bo'lgan Samarqandning shon-shuhratini yanada oshirishga alohida ahamiyat qaratdi, buning ucuun mohir usta, hunarmand va binokorlarni bir joyga to'plab ular ijodidan unumli foydalandi. Shahar atrofida obod qishloqlar barpo etildi. Temuriylar sulolasi davrida O'rta Sharqning o'rta asr madaniyati va san'ati gullagan davrni boshidan kechirdi. Bu davrlarda hashamatli va go'zal binolar qad ko'tardi, musavvirlar tomonidan devoriy rasmlar, amaliy – bezak san'ati sohasida nafis asarlar yaratildi.

Buning natijasida me'morlik va tasviriy san'atda qator yangi an'analarning vujudga kelishi va rivojlanishiga zamin yaratildi. Birinchi bor vujudga kelgan ulkan va murakkab me'morlik ansambllari shahar kompozitsiyasida alohida o'rin egallay boshladi va an'anaviy me'morlik shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqish va mukammal yullarini yaratishni taqozo etdi.

Me'morlikning rangli bezaklar bilan boyitilishi katta badiiy – estetik ahamiyat kasb etdida boshladi. Bizga ma'lumki, rangli bezaklar O'rta Osiyo an'anaviy me'morligining muhim ajralmas qismi bo'lgan.

XIV asr oxirlariga kelib tarqala boshlagan o'yma naqshlarning keng ko'lamda amalda tatbiq etilishi O'rta Sharq xalqlari ijodiy komolotining mahsuli bo'ldi.

XIV asr oxiri va XV asr boshlarida ayniqsa, Samarqandda keng kulamli ulkan qurilish ishlari olib borilgan, salobatli va go'zal inshootlar vujudga kelgan.

Bu davrda pishiq g'ishtdan qurilgan va moviy rang koshinlar bilan bezatilgan masjid, madrasa va maqbaralar, osmon o'par minoralar qad ko'tara boshladi, natijada Samarqand er yuzining sayqaliga tenglashtirildi.

O'rta asr va O'rta Sharq me'morligining nodir durdonasi, bu Amir Temur maqbarasi bo'lib, o'zining tantanavor monumentalligi va hashamdorligi bilan ajralib turadi. Bino sakkiz qirrali asos, silindirk baraban va qirrali ko'k – moviy gumbazdan tashkil topgan, ichki qismi devolari marmar bilan pardoqlangan, o'yma va rangli serjilva naqshlar mohirona ishlanganligi bilan ham kishini hayrayga soladi.

Temur va temuriylar davri me'morligini "Shohizinda" me'morlik ansambilisiz tasavvur yetib bo'lmaydi.

Bizgach o'z jozibasini yuqotmasdan kelayotgan "Shohizinda" ansambli XV asrlarning birinchi yarimida qurilgan yodgorliklardan tashkil topgan. 1434 – 1435 yillarda Ulug'bek tomonidan qurdirilgan.

Samarqandning bosh maydoni bo'lgan Registonda Ulug'bek (XV asr), unga qarama – qarshi tomonda qurilgan Sherdor (XVII asr) va ular o'rtasida joylashgan Tilla qori madrasalari (XVII asr) dan iborat ansamb yaratildiki u bugungi kunda sharq gavhariga aylandi. Bu binolar bevosita an'anaviy me'morlik prinsiplari asosida qurilgan, turl ranglarda jilvalangan sirli koshinlar bilan bezatilgan. Sherdor madrasasi peshtoqi esa sherlar tasviri tushurilganligini ko'rishimiz mumkin.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlariga kelib Xiva, Qo'qon xonliklarida ham me'morchilik qurilishlarida bo'lgan e'tibor sezilarli darajada o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Xivadagi Tosh Hovli saroyi (1830-1832 yillar) Xorazm qurilish an'alarini o'zida mujasamlashtirganligi bilan tomashabinni hayratga soladi.

Saroylar qal'aga oxshatib qurilgan bo'lib, ayvonlarning ustunlari o'ymakorlik naqshlari bilan bezatilgan; eshiklar, faqat Xiva naqqoshligida uchraydigan murakkab islamiy naqsh kompozitsiyalari rang-barang koshinlari bilan bajarilgani kishi e'tiborini o'ziga tortadi..

Buxoro me'morchiligida ham shu davrga kelib ijodiy yuksalishlar davri bo'lganligini me'moriy obidalarining "o'zlari ham aytib turibdi".. Ayniqsa, turar joy arxitekturasida rangli ganch suvoqlar, naqshinkor mexroblar, navolar va o'ymakor panjaralarni xalq ustalari tomonidan keng qo'llanila boshlanganligini ko'rsa bo'ladi.

Bu tarixiy yodgorliklar mukammal bilmi, tajriba shuningdek ajdodlarimiz mehnati, peshona teri evaziga vujudga kelganligi yurakdan his qilib, ulardagi betakror ranglarni ko'rib, mahliyo bo'ladi kishi

Moziyga nazar solar ekanmiz ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosimiz tarixiy me'morchilik obidalarini beboho va rang barangligini ko'rib quvonish bilan bir qatorda ularning mehnatiga bo'lgan hurmat, javobgarlik hissini hech qachon yodimizdan chiqmasligi lozim.

Rassomlar, shu yunalishida tahsil olayotgan talabalar bu tarixiy me'morchilik obidalarini o'z asarlarida tasvirlash orqali ota bobolari ruhini shod qilib, bu obidalarni umrini uzaytirishga o'zlarining hissalarini qo'shadilar. Kelajak yoshlarda estetik did shakllanib ota-bobolartimiz yaratib qoldirgan boy madaniy merosdan bahramand bo'lish imkoniyati paydo bo'ladi.

Memorchilik, Tasviriy va amaliy san'at va uning sir asrorlari qadimdan ota-bobolarimiz mehnatlari evaziga saqlanib rivojlanib kelgan. Bugungi kunda, O'zbekiston diyorini yanada ko'rkam va chiroyli bo'lishida, shuningdek kelajak avlodni o'z yurtini sevadigan barkamol insonlar bo'lib tarbiyalanishida, tasviriy san'at o'qituvchilari va shu sohaga aloqador insonlar zimmasiga tushadi. Albatta ustoz shogird ananalarini davom ettirgan holda biz ham san'at durdonalarini bekami kust kelajak avlodga etkazib berishga masulmiz .

ABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев.Н. .“Санъат тарихи” Т-2/1 «Санъат» нашриёти 2001.
2. R. Xasanov “Tasviriy san'at asoslari” G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi T. 2009 y
3. S.S. Bo'latov “Yoshlarga hunar o'rgatishning milliy an'anaviy asoslari” metodik tavsiya T.RUMM.1993y
4. N. U. Abdullayev San'at tarixi O'qituvchi 1986 y
5. M. Nabiyeu “Rangshunoslik” T. O'qituvchi 1995 y

6. N. Oydinov "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" T. O'qituvchi 1997
7. B. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi" T. O'qituvchi 1984 y
8. N. Oydinov O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar T.O'qituvchi 1997 y
9. R. Xasanov "Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi" T. Fan. 2004 y
10. S.S.Bo'latov "Rangshunoslik" O'zbekiston faylasuflari milliy nashriyoti T. 2009
11. S. Uralov "Mo'jiza yaratish san'ati" T. Mehnat 1996 y
12. Q. Qosimov "Naqqoshlik" O'qituvchi 1990y
13. O'zbekiston san'ati. Toshkent "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik
14. kom'aniyasi bosh taxriri. 2001 y.